



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-mart oylarida Toshkent viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 11 578,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yil mos davriga nisbatan 4,4 % ga o'sdi.

2020-yil yanvar-mart yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 3 929,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,9 % ga oshdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMni shakllantirishda Toshkent viloyatining qo'shgan hissasi 10,5 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish

	<i>Mrd. so'm</i>		<i>2019-yil yanvar-martga nisbatan % da</i>
	<i>2019-yil yanvar-mart</i>	<i>2020-yil yanvar-mart</i>	
I. YaHM	9 509,6	11 578,9	104,4
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	8 697,7	10 958,7	104,4
Mahsulotlarga sof soliqlar	811,9	620,2	104,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	8 697,7	10 958,7	104,4
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1 509,0	1 873,6	103,8
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	4 803,0	6 210,6	104,9
sanoat	4 465,4	5 793,7	105,2
qurilish	337,6	416,9	102,0
Xizmatlar	2 385,7	2 874,5	103,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	665,6	748,2	101,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	512,8	593,3	103,9
boshqa xizmat tarmoqlari	1 207,3	1 533,0	104,7

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 103,8 %, (YaHM tarkibidagi ulishi – 17,1 %), sanoat – 105,2 % (52,9 %), qurilish – 102,0 % (3,8 %), xizmatlar – 103,7 % (26,2 %) ni tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 94,6 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 5,4 % ini tashkil etdi.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining YaHM tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 0,2 % punktga kamaydi va hisobot davrida 17,1 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 1,5 % punktga o'sdi va 56,7 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 26,2 % ni tashkil etdi va 2019-yilning yanvar-mart oylari (27,5 %) bilan taqqoslaganda 1,3 % punktga kamaydi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2019-yil
yanvar-mart



2020-yil
yanvar-mart




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 6,8 % (2019-yil yanvar-mart – 7,7 %) ni, tashish va saqlash, axborot va aloqa – 5,4 % (5,9 %) ni, boshqa xizmat tarmoqlari – 14,0 % (13,9 %) ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan % da)

**2019-yil
yanvar-mart**



**2020-yil
yanvar-mart**



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Boshqa xizmat tarmoqlari


YaHM o'sish sur'atiga xizmatlar sohasining ta'siri 0,9 f.p. tashkil etdi. Ushbu sohada qo'shilgan qiymatning 3,7 % ga o'sishi kuzatildi. Shundan, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 1,7 % ga, tashish va saqlash, axborot va aloqa 3,9 % ga va boshqa xizmat tarmoqlari 4,7 % ga o'sdi.

Qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 2,0 % ga o'sdi. YaHM ning mutloq o'sishiga qurilish tarmog'ining ijobiy hissassi 0,1 f.p. darajasida baholandi.

2020-yil yanvar-mart yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 3,8 % darajasida ijobiy o'sish sur'ati qayd etildi. Mazkur tarmoqning YaHM mutloq o'sish sur'atiga ta'siri 0,6 f.p. ni tashkil etdi.

2020-yil yanvar-martda YaHM o'sishida tarmoqlarning hissassi

(jamiga nisbatan % da)






TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2020-yilning yanvar-mart oylarida YaHM deflyatori indeksi 2019-yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 116,6 foizni tashkil etadi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda 123,4 %, boshqa xizmat tarmoqlarida 121,3 %, qurilishda 121,0 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 119,6 % bo'lgan.

Viloyatning o'rtacha darajasidan past bo'lgan deflyator indeksleri savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarmog'ida 110,5 %, tashish va saqlash, axborot va aloqada 111,3 %, mahsulotlarga sof soliqlarda 73,0 % ni tashkil etgan.

2020-yilning yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



Toshkent viloyati Statistika boshqarmasi
Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi
Nashr uchun mas'ul: Sh.Bekpo'latov
Tel.: (0371) 230-86-58